

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING SHAXSIY INTELLEKTUAL RIVOJLANISHIDA BILINGVIZMNING AHAMIYATI

Axmadjonova Gulira’no Muxtorjon qizi
Farg‘ona davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada tillararo aloqaning intensiv shakli bo‘lmish interferensiya hodisasining lisoniy tabiati, bilingvizm (o‘zbek-tojik) sharoitda til o‘rganishni yengillashtirish; til o‘qitishda, o‘rganishda yuzaga keladigan interferensiya bilan bog‘liq xatoliklarni oldini olish va tuzatish; kishilarda nutq madaniyati hamda so‘zlashuv odobini shakllantirishda interferensiyaning salbiy oqibatlarini kamaytirish kabi masalalarni yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: *interferensiya, o‘zlashma so‘zlar, blingvizm, polilingvist.*

KIRISH

Mamlakatimizda olib borilayotgan ijtimoiy va ma’naviy islohotlarning muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biri ko‘p millatli o‘zbek xalqining bag‘rikenglik madaniyati va insonparvarlik xususiyatlarini rivojlantirish, millatlar o‘rtasida o‘zaro hamjihatlik va totuvlikni ta’minlashdan iborat bo‘lib kelmoqda. “Bugungi kunda mamlakatimizda 130 dan ortiq millat va elat vakillari bir oila farzandlaridek ahil va inoq yashamoqdalar. Bu borada, hech shubhasiz, xalqimizga azaldan xos bo‘lgan bag‘rikenglik an‘analari muhim rol o‘ynamoqda”. Mustaqillik yillarida mamlakatimizda turli millatlar vakillari o‘rtasida do‘stlik, ahillik va o‘zaro hamkorlikni mustahkamlashga, ularning madaniyatini, tarixini madaniy-ma’rifiy tajribalarini o‘zaro aloqadorlikda, do‘stona munosabatda rivojlantirishga alohida e’tibor qaratildi va davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Ko‘p millatli O‘zbekistonda ikkitillilik har bir inson uchun normaga aylanishi kerak. Ikki tilli shaxsning (ona va chet tillarini teng darajada biladigan) ideal shakllanishi maktabda, birinchi navbatda, nutq ko‘nikmalari, samarali ikki tillilik ko‘nikmalari va keyingi jarayonning asosi bo‘lgan tojik millatiga mansub bo‘lgan bolalardan tashkil topgan boshlang‘ich sinflarda o‘zbek tilini o‘qitish samaradorligiga bog‘liq. O‘zbek tilini o‘qitish usullarining doimiy takomillashtirilishiga qaramay, milliy maktablarda bolaning ikki tilli kommunikativ qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirishning ijtimoiy-madaniy jihatida o‘qituvchining e’tibor doirasidan biroz chetda qolmoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodoloiya

Tilshunoslikda bir tilni biluvchi shaxslarga nisbatan monolingv, ikki tilda so‘zlashuvchi insonlarga blingv, uchta tilda muloqot qila oladigan insonlarga esa trilingv, ko‘plab tillarni biladiganlarga esa polilingv va poliglot atamaları qo‘llaniladi. Turli tilda so‘zlashuvchi xalqlar o‘rtasida, turfa xil siyosiy va madaniy aloqalar zahirida ikkitillilik (blingvizm) dunyoga keladi. Misol uchun asrlar davomida tojik va o‘zbek xalqlarining bir

makonda yashashlari natijasida ikkitillilik ya’ni o‘zbek-tojik, blingvizmi hodisasi vujudga kelgan.

“Til aloqalari tushunchalarini ifoda etuvchi terminlardan biri blingvizm, (ikkitillilik, zullisonaynlik) ikki tilda bemalol gaplasha olish, ikki tilni sohibi bo‘lishdir. Ikki tilda o‘zaro kommunikativ munosabatga kirishuvchi shaxslar blingvlar hisoblanadi”. Bilingvizm lotincha so‘z bo‘lib, “bi” — ikki, “lingua” — til, ya’ni ikki tillilik ma’nosini bildiradi. Shuni takidlash joizki, fanda ikkitillilikka ko‘plab ta’riflar mavjud. “Bilingvizm, ikki tillilik — ikki tilni yoki muayyan adabiy til va uning dialektini mukammal bilishdir. Bilingvistlar ikkinchi tilni xuddi o‘z ona tilidek mukammal bilgan va so‘zlasha oladigan shaxslardir”. Bolaligidan ikki tilda bemalol muloqot qila olgan kishilarni ham bilingvistlar deb ataymiz. Aslida ham bu atama ko‘proq ikki tilli muhitda yashash natijasida shakllangan bilingvizmni ifodalaydi. Bugungi kunda, ayniqsa ta’limiy, iqtisodiy va siyosiy munosabatlarda blingvizm millionlab odamlarni o‘ziga tortmoqda. Blingvizm hodisasining asosiy mazmuni, sotsiolingvistik, psixolingivistik xususiyatlari haqida olimlar quydagicha fikr yuritganlar. Misol uchun Y.D.Desheriyev o‘z asarlaridan birida “blingvizm ikki tilida erkin so‘zlasha olish layoqatiga ega bo‘lish”, - deya ta’rif beradi. Ushbu fikrdan blingvist atamasi ikki tilni qisman bilgan shaxs emas balki, erkin muloqot darajasida mukammal biladigan shaxsga nisbatan aytilishi anglash mumkin.” V.A.Avrarin esa ikkitillilikni ikki tilda taxminan bir xilda erkin egalik qilish deb talqin qilgan”. “V.A.Avrarin va Y.D.Desheriyevlar ta’kidlashicha, shu kabi fikrlar T.A.Bertagayev, K.M.Musayev, S.N.Osenko singari tilshunoslar tomonidan ham aytilgan”. “M.Siguan va V.F.Makki ikki tilli kishini o‘zining birinchi tilidan tashqari, boshqa tilda ham shunga o‘xshash darajada malakali bo‘lgan va har qanday sharoitda ulardan birini yoki boshqasini o‘xshash samaradorlik bilan ishlata oladigan kishi deyishni taklif qiladi”. Tilshunos U.Vainrayn, “ikki tilni navbatma-navbat ishlatish amaliyoti”, - deya fikr bildirgan. V.Yu.Rozentsveyg ikkitillilikni “ikki tilni bilish va muloqot holatiga qarab biridan ikkinchisiga muntazam o‘tishdir” deya takidlagan. Boshqalar buni “ikki tilni teng darajada yaxshi bilish” deb hisoblashadi. “Ikkitillilik har qanday sharoitda, shu jumladan oilada hech bo‘lmaganda har xil tillardan taxminan teng darajada ravon foydalanish”, “ikki tilni ona tili sifatida ishlatish qobiliyati”, “ikki tilni mukammal bilish”, yoki “ikkilamchi til tizimiga mansub o‘z nutqini ijodiy qurish” qobiliyati sifatida. Haqiqiy ikki tillilik “ijtimoiy faoliyatning eng muhim sohalarida bir-biri bilan muntazam ravishda o‘zaro aloqada bo‘lgan ikki tilni nutqda ham, fikrlash jarayonida ham teng yoki teng darajada bilish va foydalanishni nazarda tutadi”.

Kichik sinf o‘quvchilarida ikki tillilikni rivojlantirish masalalariga bag‘ishlangan qator tadqiqotlar mavjud. Ushbu tadqiqotlar G.A.Abdiyev, K.Z.Zakirov, V.F.Fahriddinov, va boshqalar tomonidan olib borilgan. Boshlang‘ich sinf o‘quvchisining ikki tilli shaxsini shakllantirish jarayoni aslida o‘z-o‘zidan amalga oshiriladi. Shu munosabat bilan ilmiy-nazariy darajada tadqiqotning dolzarbligi maktablarda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kommunikativ va lingo-madaniy xususiyatlarini hisobga olgan holda ikki tilli shaxsni shakllantirishning lingvistik va psixologik asoslarini ishlab chiqish zarurligidir.

“Tojik millatiga mansub boshlang‘ich sinflar uchun o‘zbek tilidagi boshlang‘ich ta’limning zamonaviy kontsepsiyalari, dasturlari, darsliklari, o‘quv-uslubiy to‘plamlarini o‘rganish bizga o‘quvchilarning shaxsiyatini rivojlantirishga umumiy e’tibor qaratgan holda shunday xulosaga kelishimizga imkon berdi”. Til haqidagi nazariy ma’lumotlarga e’tiborning kuchayishi, o‘qitish tamoyiliga rioya qilmaslik, o‘zbek tilini o‘rgatishda kommunikativ-lingvomadaniy yondashuvga yetarlicha e’tibor bermaslik uni amaliy bilish darajasining pasayishiga olib keladi.

Natijalar va muhokamalar

Ikkitillilik (bilingvizm) – aholining ayrim guruhlarida ikki tilda muloqot qilish qobiliyati. Ikkita tilni inson qay darajada o‘zlashtirishiga ko‘ra bilingvizm yana 3 turga bo‘linadi:

1.Koordinativ yoki muvozanatlashgan bilingvizm. Bunda inson ikki tilni alohida kontekstda o‘zlashtiradi. Bunday odamlar miyasida ikkala til uchun alohida so‘z boyligi, alohida grammatik tushunchalar shakllangan bo‘ladi. So‘zlashganda ikki tilning tushunchalari bir-biri bilan aralashib ketmaydi. Unda dominant til mavjud emas. Shu bilan birga, ikki tilli odam o‘zi gapiradigan tilda fikr yuritadi.

2.Sub-koordinativ yoki muvozanatlashmagan bilingvizm. Bunda birinchi til ikkinchisiga qaraganda ustunlikka ega bo‘ladi. Ya’ni ikkinchi til ona tili orqali o‘zlashtirilgan bo‘ladi. Masalan, ikkinchi tilda biror so‘zni eshitganda shu so‘zning ona tilidagi ekvivalenti birdan xayolga keladi. Unda dominant til (fikrlash tili) mavjud.

3.Aralash bilingvizm. Bunday bilingvistlar ikki tilni bir kontekst ichida tushunib, qo‘llab keta oladi. Bunday kishilarning miyasi qaysi tildan foydalanayotgani haqida o‘ziga hisob berib o‘tirmaydi. Odatda aralash bilingvizm oilada, ikki tilda so‘zlashuvchi ota-onalar sababli go‘daklik paytidayoq rivojlanadi.

Ikki tillilik mexanizmi – bu bir tildan ikkinchi tilga osongina o‘tish qobiliyatidir. U shakllangan kommutatsiya mahoratiga asoslanadi”.

Kommutatsiya mahorati – nutq birliklarini tarjima qilish uchun bir tildan ikkinchi tilga o‘tish operatsiyalarini bajarish qobiliyati. Uning ishlashi manba va maqsadli tillarda nutqni eshitish, ehtimollik prognozi va o‘zini o‘zi boshqarish qobiliyatlariga bog‘liq. Biroq, ikkidan ortiq tilni bilish ko‘p tillilikni, boshqacha aytganda, ko‘p tillilikni ham o‘z ichiga olishi mumkin.

Adabiyotda ikki tillilik tushunchasining quyidagi ta’riflari mavjud:

- ikki tilni muqobil ishlatish amaliyoti;
- ikki tilni bilish va ular bilan muvaffaqiyatli muloqot qilish qobiliyati (hatto tillarni minimal darajada bilish);
- ikki tilni teng darajada mukammal bilish, muloqotning zaruriy sharoitlarida ulardan teng darajada foydalanish qobiliyati.

Tillar tartibini o‘zlashtirish va o‘rinlashtirish psixolingvistikada L1 - birinchi til yoki ona tili va L2 - ikkinchi til yoki o‘rganilgan til kabi ta’riflanadi. Agar

ikkinchi til ma’lum bir lisoniy muhitda hukmron bo‘lsa, ba’zida birinchi tilni almashtirishi mumkin.

Ikkitillilik hosil bo‘lish usuliga ko‘ra ikki turga bo‘linadi.

1) tabiiy (uy);

2) sun’iy (tarbiyaviy).

Tabiiy ikkitillilik o‘z-o‘zidan shakllangan nutq amaliyoti hisoblanib, tegishli ikki til muhitida yuzaga keladi. Inson tug‘ilganidan boshlab, ikkita tilda so‘zlashuvchi insonlar doirasida yashashi natijasida tabiiy ikkitillilik shakllanadi. Sun’iy ikkitillilikda esa bola o‘z ona tilisini o‘zlashtirgandan so‘ng, keyinchalik tarbiya jarayonida ikkinchi tilni o‘zlashtirishi hisoblanadi. “Ikkinchi tilni o‘zlashtirish - bu bilim va ko‘nikmalarni egallash jarayoni va ikki tillilik bu murakkab va uzoq jarayonning natijasi bo‘lib, real sharoitlarda kamdan-kam hollarda oxirigacha amalga oshiriladi”.

Ikkitillilik shakllanish davriga ko‘ra turlari quydagilaridan iborat:

1) Erta ikkitillilik

2) Kech ikkitillilik

Ikkinchi tilni o‘zlashtirish yoshiga qarab, erta va kech ikki tillilik farqlanadi. Erta ikki tillilik bolalikdan ikki tilli madaniyatda yashash, shu jumladan, ota-onalarning turli tillarda gaplashishi yoki bir mamlakatdan boshqasiga ko‘chishi natijasida yuzaga keladi; Kech ikki tillilik – ikkinchi tilni o‘rganish bir tilni o‘zlashtirgandan keyin kattaroq yoshda sodir bo‘ladi. Ikkitillilik tushunchasiga oid nazariy ma’lumotlar umumlashmasini quydagi rasm asosida yoritib berildi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, muayyan xalq, millat tilining boshqa xalq yoxud millat tiliga ta’siri lug‘aviy satxdan tashqari lisoniy aralashuvlar tufayli tillararo aloqa vujudga keladi. Ikkitillilik (blinvizm) atamasi anglatgan nutqiy imkoniyat, interferensiya deb nomlanuvchi atama bilan bog‘lanadi. Interferensiya jarayonida blingv (ikki tilni biluvchi) bir tilga hos lisoniy hususiyatlarni boshqa ikkinchi tilga beihtiyor ko‘chirib qo‘yadi. Bu jarayon bir tilning ikkinchi tilga ta’siri doirasida namoyon bo‘ladi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

I. Normativ-huquqiy hujjatlar.

1. Sh.M.Mirziyoyev “Ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, muqaddas dinimizning sofliğini asrash — davr

Talabi” mavzusidagi anjumanda so‘zlagan nutqi // Xalq so‘zi, 15.06.2017.

2. 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar

strategiyasi to‘g‘risidagi PF-4947 sonli farmoni. 07.02.2017

II. Ilmiy adabiyotlar.

3. A.A.Haydarov. “Tillar o‘qitish metodikasi va ta’lim texnologiyalari”. 2016-y.

4. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. T.2003

5. Аврорин В.А. Двужычия и школа. В кн: Проблемы двужычия и многоязычия. М., 1972, стр.51.

6. Bialystok, Ellen, and Janet F. Werker. “The systematic effects of bilingualism on children’s development.” *Developmental science* 20.1 (2017).

7. Боровков А.К. Таджикско-узбекское двужычие. Москва, 1952; Ишондадаев Д. Некоторое особенности словообразования в таджикских и узбекских говорах Наманганских

8. Бертагаев Т. А. К вопросу взаимовлияния языков: Взаимодействие и взаимовлияние языков народов СССР / Т. А. Бертагаев.- М., 1969. - С. 56.

9. Dijkstra, T. (2005). Bilingual visualword recognition and lexical access. In Kroll & de Groot (eds.), pp. 179–201.

10. Дешериев Ю.Д. Введение. В кн: Развитие национально- русского двужычия. М., 1976, стр.22

11. G.M.Axmadjonova.Blingvizm va uning turlari//2024, № 2. – Impact Factor 8.09 (№23)FIJESH.

12. Махмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. – Тошкент. 1960. 1-том, 65-66- б..

13. Мусаев К.М. Казахский язык. -М.: Восточная литература, 2008. –С.

14.Поливанов Е.Д. Вокализм говора гор. Самарканда (глава из описания двужычной системы) // Доклады АН СССР. – Ленинград: Акад. наук СССР, 1928, №14. – С.306-312;

15. Поливанов Е.Д. Материалы по грамматике узбекского языка. –Ташкент, 1934;

16. I.A.RASULOVA “LINGVOMADANIY INTERFERENSIYA HAMDA UNI BARTARAF ETISH YO‘L-YO‘RIQLARI” – Samarqand – 2021

17. Розенцвейг, В.Ю. Языковые контакты. – Л.: Наука,1972.

18. Samarova, S. 2018. Forming Creative Vision of Person as Universal Method Enhancing Creativity.Eastern European Scientific Journal, 6.

19. Samarova, S. R. 2019. Methods and technologies for the development of creative thinking of pupils. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 710, 37-43.

Сигуан М. Образование и двужычие / М. Сигуан, У. Ф. Макки. -М., 1990. -С. 11.

20. Tojiyev M,Uralova M.Pedagogik texnoloyiya va pedagogik mahorat fanining o‘quv mashg‘ulotlarini loyhalash.O‘quv qo‘llanma T-.”Tafakkur bo‘stoni”,2012

21. Ваинрайх У. Языковые контакты: Состояние и перспективы исследования / У. Ваинрайх. -Киев, 1979. - С. 3.

III. Internet saytlari:

1. englex.ru/why-is-it-important-to-learn-2-languages

2. postnauka.ru/faq/67660

3. studysmarter.us/explanations/english/international-english/bilingualism

4. <https://sinaps.uz>

5. <https://daryo.uz>